Vol.1 №6 (2024). January
Journal of Effective
innovativepublication.uz
Learning and Sustainable Innovation

# KICHIK BIZNESNI "YASHIL" IQTISODIYOT ASOSIDA RIVOJLANTIRISH IPAKCHILIK SANOATI MISOLIDA

**Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi**
Farg'ona davlat universiteti

**Annotatsiya**: ushbu maqola kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni "yashil" iqtisodiyot asosida rivojlantirishda ipakchilik sanoatidan samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** kichik biznes, yashil iqtisodiyot, pillachilik, qurt, oilaviy tadbirkorlik, ishchi kuchi.

**Kirish.** "Yashil o'sish va global maqsadlar uchun hamkorlik-2030" Janubiy Koreyadagi sammitda Sh.M.Mirziyoev "Bugungi kunda ona tabiatning o'zi bizga yo'llayotgan ogohlik qo'ng'irog'iga beparvo bo'lmasligimiz kerak. Afsuski, iqlim o'zgarishlari tobora kuchayib bormoqda. Biz yashayotgan Markaziy Osiyoda so'nggi 30 yilda o'rtacha yillik harorat taxminan bir darajaga ko'tarildi. Mamlakatimizdagi asosiy daryolarning havzasi va biologik xilma-xillikning qisqarib borayotgani jiddiy xavotir uyg'otmoqda. Bug'lanish darajasini oshiradigan gazlar va atmosferaning keng miqyosda ifloslanishi muammolarni yanada chuqurlashtirmoqda. Bugungi kunda yashil taraqqiyot borasidagi maqsadlarga erishish uchun mamlakatlarning harakatlari yanada faol va samarali bo'lishi kerakligiga hech kim shubha qilmayapti. Boshqa choramiz ham yo'q"[1] degan fikrlarni ta'kidlab o'tdi. Keyingi 50 yil ichida iste'molchilik jamiyati atrof-muhitga salbiy ta'sir o'tkazganligi natijasida bugungi kunda sof tabiat to'g'risida gap yuritish qiyin, har kuni atmosferaga 60 million tonna karbonant angidrit chiqarilmoqda, sayyoramizda odamlar tez

[1] "Яшил ўсиш ва глобал мақсадлар учун ҳамкорлик 2030" Жанубий Кореядаги саммитда Ш.М.Мирзиёев сўзлаган нутқи

ko‘payib bormoqda, fan-texnika taraqqiyoti rivojlanmoqda, ishlab chiqarish jarayoni avtomatlashmoqda, o‘rmonlar kesilib ketmoqda, hayvonot turlari va o‘simliklar kamayib bormoqda. Chiqindilar ko‘paymoqda, ekologiya buzilmoqda, tuproq hosildorligi pasayib bormoqda, ekin(har yili dunyoda 12 mln. gektar yer cho‘llaydi) yerlarni cho‘llashi avj olmoqda. O‘zbekistonda har minutda 9 $m^2$ yer cho‘llaydi.

Iste’molchilik jamiyati tabiiy resurslardan jadal (ozko‘zlarcha) foydalanib borsa resurslarimiz 40 yildan keyin tugaydi.[2]

**Adabiyotlar taxlili.** Yashil iqtisodiyot va kichik biznes bilan bog‘liq yo‘nalishda chet el hamda mamlakatimiz olimlari tomonidan keng tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, uzoq xorijda global iqtisodiy-ekologik muammolar bilan P.A.Kovolyov va A.A.Sheveleva, Bogautdinov N.G, Butyanko G.V, Lavrentev, Gelovani E.S, Stepanishvili N.A, Kafian A.G, Costanza R., Cataldo A.L., Burgstaller D., Anthony S.F. Chiu, Geng Yong, Brian Boyd, Yue Yang, Zhaoqi Wang, 6 Jianlong Li, Chencheng Gang, Raul P. Lejano, Daniel Stokols, Yanzhen Zhang, Ying Zhang, Inakwu Odeh , Jiaguo Qi va boshqa iqtisodchi olimlar shug‘ullangan[3].

MDH davlatlarida iqtisodiy-ekologik bilan bog‘liq izlanishlar Ananenkov, A.G., Bronshteyn A.M., Gofman K.G., Gomboev B.O., Zalesskiy L.B., Sadыkova E.S., sapieva O.K., I.V.Doljikova I.V., somartova L.V. kabi xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan[4]

[2] АҚШ ресурслар институти. 2022 йил, 79-81 бетлар

[3] P.A.Kovolyov va A.A.Shevelevalar mualifligida yozilgan Tut ipak qurilish urug’chiligi va seleltsiyasi Costanza, R., Stern, D. I., He, L., Ma, C. (2004). Influential publications in ecological economics: a citation analysis. Ecological Economics 50(3-4): 261-292; Cataldo A.L., Burgstaller D., Hribar G, Jungbauer A, Satzer P, Economics and ecology: Modelling of continuous primary recovery and capture scenarios for recombinant antibody production, Journal of Biotechnology (2019), doi: https://doi.org/10.1016/j.jbiotec.2019.12.001; Brian Boyd. Ecologies of fiber-work: Animal technologies and invisible craft practices in prehistoric Southwest Asia. Quaternary International; Andrew Brennan. Asian traditions of knowledge: the disputed questions of science, nature and ecology. Stud. Hist. Phil. Biol. & Biomed. Sci. 33 (2002) 567–581; Anthony S.F. Chiu, Geng Yong. On the industrial ecology potential in Asian Developing Countries. Journal of Cleaner Production 12 (2004) 1037–1045; Raul P. Lejano, Daniel Stokols. Social ecology, sustainability, and economics. Ecological Economics; Sangwon Suh. Theory of materials and energy flow analysis in ecology and economics. Ecological Modelling 189 (2005) 251–269; Yue Yang, Zhaoqi Wang, Jianlong Li, Chencheng Gang, Yanzhen Zhang, Ying Zhang, Inakwu Odeh , Jiaguo Qi. Comparative assessment of grassland degradation dynamics in response to climate variation and human activities in China, Mongolia, Pakistan and Uzbekistan from 2000 to 2013. Journal of Arid Environments

[4] Ананенков, А.Г., Ставкин, Г.П., Андреев, О.П., Хабибуллин, И.Л., Лобастова, С.А. Эколого-экономическое управление охраной окружающей среды Текст. / А.Г. Ананенков [и др.] М.: ООО «Недра-Бизнесцентр», 2003.- 228с.; Бронштейн,

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o’tishda va kichik biznes masalalari bilan M.Bo`tabayev, O.Umarov, Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Toshmatov Sh.A .A.Gafarov, B.Ataniyazov, A.E.Ishmuxamedov, S.Gulomov, I.Qayumova, T.Shodiev, Yu.Muhammedov, N.M.Mahmudov, B.Xodiev, R.Kulmatov, U.Djanibekova, U.P. Umurzakov, A.J. Toshboyev kabi olimlar shug‘ullanganlar.

Mazkur masalaning ilmiy-uslubiy jihatlarini rivojlantirish, uning omillarini tadqiq qilish asosida boshqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy izlanishlarga kam e’tibor qaratilgan. Shuningdek, respublikamiz hududlarini yashillashtirish, ekologik toza maxsulot va ekologiyaga salbiy ta’sir ko’rsatmasdan foyda olish hamda pillachilik sanoatini rivijlantirish borasida, ilmiy tavsiyalarni ishlab chiqishga ham yetarli darajada e’tibor berilmagan. Tut daraxti va uni ozuqaviy manbaa ekanligi va unga mos ravishda pillachilik daromadlari atroflicha o‘rganilmaganligi, mazkur masalani samarali boshlash va samaradorlik nuqtai nazaridan tadqiq etish zarurati ushbu mavzuni tanlashga asos bo‘lib xizmat qildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi bo‘lib dialektika uslubi hisoblanadi va tadqiqot jarayonida tanlab kuzatish, taqqoslash, ekspertlar bahosi kabi usullardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar**. Marg‘ilondagi rekreatsiya tutchilkk biznesi va Toshkent shahar hokimining qaroriga ko‘ra 2022-yil erta bahordan boshlab 1 mln tup tut ko‘chatlari ekishga kirishilganligi va bu ishlar 2023-2024 va undan keyingi yillarda ham davom etadi. Marg‘ilon

А.М., Литвин, В.А., Русин, И.И. Экологизация экономики: методы регионального управления Текст. / А.М. Бронштейн [и др.] М.: Наука, 1990.; Гофман, К.Г., Гусев А.А. Экологические издержки и концепция экономического оптимума качества окружающей природной среды Текст. / К.Г. Гофман, А.А. Гусев // Экономика и математические методы, 1981, вып. 3, с. 515-527.; Гомбоев, Б.О., Бардаханова, Т.Б., Кириенко, Г.С., Михеева, А.С. Эколого-экономическое обоснование территориальной организации природопользования в регионе Текст. / Б.О. Гомбоев [и др.] — Улан-Удэ: БНЦСО РАН, 1992.- 62 с.; Залесский Л.Б. Экологический менеджмент. М.:ЮНИТИ-ДАНА,2004.-220с.; Хохлова О.А., Будажанаева М.Ц. Статистическая оценка качества развития экономики регионов России / Пространственная экономика. –М.: 2010, №1. С. 133-146; Садыкова, Э.Ц. Оценка природоемкости как индикатора качества социально-экономического развития региона Текст. / Э.Ц. Садыкова // Экономика природопользования, 2009. № 2. - С. 11-22.; Цапиева О.К. Устойчивое развитие региона: теоретические основы и модель // Проблемы современной экономики. – 2010. - №2. – С. 307-311; Цомартова Л.В. Факторы устойчивого развития региональных социально-экономических систем.

Toshkent amaliy tajribalaridan ibrat olgan Toshkent viloyatidagi jismoniy tarbiya insitutining Farg'ona filyali jamoasi 2022-yilda 400 tup tutlarni istiroxat hududlariga ekib tarbiyalayapti. Bu tajriba keskin tus oldi. Tashabbus mustaqil qaror qabul qilish begonalashdi. Hozir tadbirkorlik qiladigan boshlagan talabgorlarning katta qismi yetarli bilimga ega bo'lmagan kishilar. Bu ular olib borayotgankerakli bizneslarning oqsashida ko'zga tashlanmoqda. Bizneslar uchun tezroq, ko'piroq mustaqil fikirlaydigan, faol, yosh mutaxassislar tayyorlash o'ta dolzarb bo'lib turadi.

Tadqiqotlar natijalari bo'yicha olimlarimiz tomonidan mahalliy va xalqaro axborot vositalarida ilmiy-amaliy maqolalar e'lon qilinishiga hamda viloyat, shahar hokimlariga amaliy takliflar kiritilayotgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy taklif va tavsiyalardan yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida kichik biznesni rivojlantirishni uslubiy asoslarini takomillashtirishga hamda Farg'ona viloyatidagi kichik biznes korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish, YHMdagi ulushini oshirish, yashil iqtisodiyotga o`tishni amaliyotga joriy etish, "Farg`ona viloyati kichik biznesni yashil iqtisodiyot asosida rivojlantirish konsepsiyasi"ni ishlab chiqishga ilmiy asos bo`lib xizmat qilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini amaliy ahamiyati xulosa va takliflardan O`zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi, uning hududiy bo`limlari tomonidan kichik biznes sub'ektlarini rivojlantirishning maqsadli dasturlarini ishlab chiqishda oliy ta'lim muassasalari uchun o`quv adabiyotlarini, jumaladan "Kichik biznes va tadbirkorlik", "Yashil iqtisodiyot" "Sanoat iqitisodiyoti", "Makroiqtisodiyot", "Mikroiqtisodiyot" fanlari bo`yicha o`quv adabiyotlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Kichik biznesni yashil iqtisodiyot asosida barqaror rivojlantirish bo`yicha olingan natijalar asosida:

Yashil iqtisodiyotga o`tish sharoitida ekologik toza maxsulot ishlab chiqarish salmog`ini oshirish bo`yicha takliflar ishlab chiqildi;

Ipillachilik tarmog‘ining rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarni zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash orqali kompleks bashorat qilish uslublari ishlab chiqildi.

Pillachilik tarmog‘i rivojlanishini bashorat qilishda iqtisodiy - matematik usullar guruxlash usullari, ekspert baxolash, ekstrapolyatsiyalash usullaridan foydalanildi. Shuningdek, pillachilik tarmog‘ida ozuqa bazasi rivojlanishi, pilla tayyorlash xajmi va xosildorligining kelgusidagi o‘zgarishini eksponensial yakinlashish usullari orqali xam bashorat qilish mumkin.

Iqtisodiy ko‘rsatkichlarning bashorat qilish jarayonida olingan natijalar buyicha extimollik bilan mos tushuvchi ishonch oraliqlari va ularning ishonchlilik darajasini tekshirishda quyidagi formulalardan foydalanildi:

$\rho=\rho\pm t\alpha S\rho$; (1) $\rho$— $t\alpha S\rho < \rho <+ t\alpha S\rho$, (2)

bu erda, $S\rho$— o‘rtacha kvadratik xatolik bo‘lib, $S\rho = S/\sqrt{n}$ formula p buyicha hisoblanadi, ehtimollik darajasi 95% deb olinadi.

Pillachilik tarmog‘i rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy ko‘rsatkichlar, ya’ni tarmoq ozuqa bazasi va pilla tayyorlash xajmini bashorat qilishda tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan o‘zaro bog‘liq iqtisodiy — matematik modellar va dasturlar majmuidan foydalanildi.

Yuqorida keltirilgan xolatlar buyicha pillachilik tarmog‘ini istiqbolda rivojlanishini bashorat qilishda o‘zaro aloqada bo‘lgan asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar e’tiborga olindi. Ushbu tarmoqda iqtisodiy ko‘rsatkichlarni bashorat qilishda ozuqa bazasi va pilla tayyorlash xajmi muhim o‘rin tutadi.

Dasturlar majmui yordamida kompyuterda 2023-2028 yillarda respublika pillachilik tarmog‘ida yaratiladigan pilla quttisi va pilla tayyorlash xajmini aniqlash bo‘yicha bashorat qilindi.

**Xulosa.** Yuqoridagi to‘rt unsurllar yetarli bo‘lishi, tut pillachiligi samaradorligiga asos bo‘ladi. Ish o‘rinlari yildan yilga ko‘payib boradi. O‘zbekiston uzog’i bilan 10 yildan

keyin chetdan ishchilar yo‘llaydigan davlatga aylanadi. Chunki, foydalanilmay turgan imkoniyatlari juda yuqori. Imkoniyatlarning yarmi ishga solinsa ham bir so‘m harajat hisobiga, eksportni ham hisoblaganda bir so‘m foyda oladigan mamlakatga aylanadi.

Rekreatsiya hududlarida yashil xususiy biznes tashkil qilish samarali bo‘lishi bilan birga, boshqa asosiy sohalarga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydi. Iqtisodiy-ekologik hududlar ishida bo‘ladi. Mebel, ipak qog’oz, choy va ipakchilik, meditsina, kosmetika bilan bog’liq sanoat korxonalari rivojlanishida asos bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Рахимова, Қ. Н. Қ. (2022). Яшил бизнес аҳамиятининг ортиб боришининг ижтимоий-иқтисодий зарурати. *Scientific progress*, *3*(2), 880-885.
2. Rakhimova, K. (2022). SOCIO-ECONOMIC NECESSITY OF INCREASING THE IMPORTANCE OF GREEN BUSINESS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(4), 1034-1037.
3. Husanbek, Q., & Raximova, K. N. (2022). OILAVIY KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURIYATI. *Gospodarka i Innowacje.*, *24*, 1103-1108.
4. Мохигул, А., & Рахимова, К. (2022). ҚУРИЛИШ МАТЕРИЛЛАРИ САНОАТИ КОРХОНАЛАРИДА ИШЛАБ ЧИҚИШ ПОТЕНЦИАЛИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ СТРАТЕГИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. *Gospodarka i Innowacje.*, *24*, 999-1002.
5. Raximova, K. N., & Abdurahmon Mominjon og, A. (2022). YASHIL HOM–ASHYOLARDAN QURILISH SOHALARIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGI. *Gospodarka i Innowacje.*, *24*, 957-960.
6. Qizi, R. K. N. M., & Kadirovna, A. M. (2022). ISHCHI KUCHIGA TALAB VA TAKLIFNI ISTIQBOLLASHTIRISH. *Ta’lim fidoyilari*, *8*, 149-153.

7. Рахимова, К. Н., Турсунов, О., Мирзаев, Р. Б., Ахмадалиева, М. К., & Кодиров, А. (2022). ЎЗБЕКИСТОНДА «ЯШИЛ МОЛИЯ» ТИЗИМИНИ ЙЎЛГА ҚЎЙИШ ВА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. *Gospodarka i Innowacje.*, *28*, 90-96.
8. Kizlarkhon, R. (2022). ECONOMICAL USE OF LAND AND WATER RESOURCES WITH THE OPTIONS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*(09), 148-151.
9. Абдусаматов, Д. А. (2022). КЛАССИФИКАЦИЯ ПРИЕМНИКОВ ОПТИЧЕСКОГО ИЗЛУЧЕНИЯ ДЛЯ РАЗРАБОТКИ ОПТОЭЛЕКТРОННЫХ ИНФОРМАЦИОННО-ИЗМЕРИТЕЛЬНЫХ СИСТЕМ. *Gospodarka i Innowacje.*, *24*, 986-988.